

## KREDITNI QAYTMASLIK TAVAKKALCHILIGINI SUG'URTALASH OMMAVIY OFERTASI

Mazkur Ommaviy oferta (*keyingi o'rinnlarda "Oferta"*) "KAPITAL SUG'URTA" AJ ning (*keyingi o'rinnlarda "Sug'urtalovchi"*) noma'lum doiradagi yuridik shaxslarga (*keyingi o'rinnlarda "Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi"*) yo'llangan quyidagi sug'urta shartlarida, qonunchilikka zid bo'limgan tartibda Sug'urtalovchining dasturiy ta'minotida (*keyingi o'rinnlarda "axborot tizimi"*) sug'urta shartnomasini tuzish taklifi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchi shartnomasi tomonlaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlanishi Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan so'ng unga elektron sug'urta polisi Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (*keyingi o'rinnlarda "Yagona tizim"*) orqali rasmiylashtiriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

### 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur oferta shartlariga ko'ra, Naf oluvchining kredit qaytmasligi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari sug'urta ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalash haqidagi ma'lumotlar Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchi tomonidan to'ldirilgan ariza-anketa va sug'urta polisida ko'rsatiladi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga roziligi ifodalanadi:

1.2.1. mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;

1.2.2. arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yo'li orqali Sug'urta polisini amal qilishining butun muddati davomida hamda sug'urta polisini amal qilishi tugagan sanadan boshlab 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, toplash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

1.3. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchi sifatida ushbu Oferta shartlariga ko'ra Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan muomalaga layoqatli va huquqiy layoqatli yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, O'zbekiston fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtinchalik yashovchi chet el fuqarolari bo'lishi mumkin.

1.4. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

1.5. Sug'urtalovchining axborot tizimida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchidan uning **elektron pochta manzili** va/yoki **mobil telefon raqami** mavjudligi talab qilinadi.

1.6. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritishi Sug'urta shartnomasini tuzish uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

1.7. Sug'urtalovchi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 62-moddasi talablariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi va Sug'urta

shartnomasida ko'rsatilgan boshqa shaxsga doir ma'lumotlari saqlanishini va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.8. "Oferta", "Sug'urta shartnomasi" va "Sug'urta polisi" havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

### **1.9. Oferta orqali Sug'urta shartnomasini tuzish tartibi:**

1.9.1. Mazkur Oferta Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga sug'urta xizmatlarini sotish va ko'rsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjat bo'lib hisoblanadi;

1.9.2. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan Sug'urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllanadi;

1.9.3. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi elektron arizaning to'ldirilishi shart bo'lgan kataklarini mustaqil va arizada ko'rsatilgan hujjatlarning aslidagi ma'lumotlarga qat'iy muvofiq holda to'ldiradi;

1.9.4. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi arizada ko'rsatilgan hujjatlarning ishonchliligi va asliga to'g'ri ekanligi uchun zimmasiga javobgarlikni oladi, shuningdek arizada ko'rsatilgan hujjatlarni ularning asliga muvofiq bo'Imaganida sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta tovoni to'lashni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozi bo'ladi;

1.9.5. Arizada ko'rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning ma'lumotlari avtomatik ravishda Sug'urta shartnomasiga (Sug'urta polisiga) kiritiladi.

1.9.6. Ofertada taklif qilinadigan sug'urta shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida o'z roziligini tegishli tugmani bosish orqali (/) tasdiqlaydi. Sug'urta shartnomasini tuzish uchun arizani (keyingi o'rinnlarda "Ariza") Sug'urtalovchining axborot tizimidan foydalangan holda onlayn tarzda to'ldirishga kirishadi.

1.9.7. Arizani to'ldirishda Sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni va sug'urta hodisasi yuz berishidan ko'rlishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini (sug'urta tavakkalchiligin) ko'rsatish talab qilinadi. Barcha ma'lumotlar hujjatlarning asliga qat'iy muvofiqlikda ko'rsatilishi kerak.

1.9.8. Ariza to'ldirilganidan keyin, Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan "Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish" tugmasidan foydalanshga avtomatik tarzda ruxsat beriladi.

1.9.9. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan sug'urta polisini (polisga havolani) olishi Sug'urta shartnomasi taraflari sug'urta shartnomasini (sug'urta polisini) lozim darajada imzolanganligini tasdiqlaydi.

1.9.10. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchining sug'urta mukofotini to'laganligi fakti Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan tasdiqlangan sana mazkur Ommaviy oferta aksept qilingan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadir.

### **1.10. Sug'urta shartnomasi (polislari) bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovini amalga oshirish tartibi:**

1.10.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovni amalga oshirish Sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan axborot (onlayn) tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi;

1.10.2. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga keyingi qayta yo'naltirish uchun ariza qabul qilinganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchi arizani to'ldirayotganida ko'rsatib o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi;

1.10.3. SMS-xabar tasdiqlash kodi bilan birga olinganidan keyin Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchi elektron to'lov tizimini, bank hisob raqami orqali tanlashi

zarur, undan keyin u sug'urta mukofotining hisoblangan summasini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi;

1.10.4. Sug'urta polisi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovi to'langanligi haqidagi tasdiq olinganidan keyin Sug'urtalovchining axborot tizimi Sug'urta polisini rasmiylashtirishni elektron shaklda avtomatik tarzda amalga oshiradi, uni Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchining elektron pochta manziliga yo'llaydi va/yoki Sug'urta polisining seriyasi va raqami, Sug'urta polisi elektron tarzda jo'natilganligi fakti haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan SMS-xabar jo'natilishi yo'li bilan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchini xabardor qiladi.

1.10.5. Sug'urtalovchi to'lov provayderining harakatlari/harakatsizligi uchun, shuningdek Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining elektron to'lovlar tizimi va internet orqali to'lash bilan bog'liq zararlari va tavakkalchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

1.10.6. Sug'urtalovchining axborot tizimida "Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish" tugmasini bosish bilan, shuningdek shakllantirilgan sug'urta mukofotini to'lagan holda Oferta yo'llangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq mazkur Oferta shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

1.10.7. Mazkur Shartnomaning rus va ingлиз tillardagi matni faqat ma'lumot tariqasida taqdim etilishi mumkin. Agar rus, o'zbek va ingлиз tillardagi matnlarni talqin qilishda biror bir tafovut vujudga kelgan taqdirda, mazkur Shartnomaning o'zbek tildagi matni boshqa tillardagi matnga nisbatan ustuvor kuchga ega bo'ladi.

## 2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Shartnomada qo'llanilgan asosiy tushunchalar quyidagi ma'nolarga ega:

**Kredit shartnomasi (oferta-shartnomasi)** – Sug'urta qildiruvchi va Qarz oluvchi o'rtaida tuzilgan fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'lib, unga ko'ra Sug'urta qildiruvchi Qarz oluvchiga, Qarz oluvchining pul mabag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida pul mablag'larini taqdim etadi.

**Kredit** – muddatli kreditlashning alohida shakli bo'lib, Kredit shartnomasida (oferta shartnomasida) ko'rsatilgan kredit limiti va kredit muddati doirasida beriladi.

**Qarz oluvchi** – Sug'urta qildiruvchi bilan kredit shartnomasini (oferta shartnomasi) tuzgan yuridik shaxs.

**Sug'urta polisi** – Sug'urtalovchining majburiyatları kuchga kirganligini va sug'urta mukofoti to'langanidan keyin Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga berilganligini tasdiqlovchi hujjat (Polis onlayn taqdim etiladi).

**Kreditning to'liq muddati** – kredit shartnomasi (oferta shartnomasi) bo'yicha kredit limiti ochilgan kundan boshlab, Qarz oluvchi kredit qarzni to'liq qoplash uchun amalga oshirishi kerak bo'lgan eng so'nggi to'lovning belgilangan sanasigacha bo'lgan vaqt davri.

**Sug'urta hodisasi** – ushbu Shartnomada nazarda tutilgan haqiqatda sodir bo'lgan voqealboz bo'lib, u sodir bo'lishi bilan Sug'urtalovchining Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lash majburiyati vujudga keladi;

**Sug'urta summasi (sug'urta qiymati)** – ushbu Shartnoma bo'yicha Sug'urtalovchining Sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatlarining maksimal miqdorini ifodalovchi pul summasi;

**Kutish davri** – Sug'urtalovchi ushbu Shartnomada ko'rsatilgan sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan har qanday zararni qoplashigacha tugashi kerak bo'lgan to'lov sanasidan boshlab hisoblangan ketma-ket kalendar kunlar soni. Ushbu Shartnoma bo'yicha kutish muddati - 1 (bir) kalendar kun.

**Sug'urta toponi** – ushbu Shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta summasi doirasida Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga to'langan pul summasi;

**Sug'urta mukofoti** – Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi ushbu Sharhnomaning ajralmas qismi hisoblangan ariza anketada belgilangan tartibda va muddatlarda Sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta uchun haq;

**Sug'urta davri** – Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyati amal qiladigan vaqt davri. Sug'urtalovchi sug'urta muddati davomida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari uchun majburiyatlarga ega bo'ladi. Sug'urta muddati Kredit sharhnomasi (oferta sharhnomasi) muddatiga mutanosib ravishda belgilanadi va Qarz oluvchi Kredit sharhnomasi (oferta sharhnomasi) bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

**Zarar** – Sug'urta hodisasi yuz berganda Qarz oluvchi Sug'urta qildiruvchi oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida Sug'urta qildiruvchi tomonidan olinmagan mablag'lar miqdori;

**Kreditni qaytarmaslik tavakkalchilagini sug'urtalash bo'yicha oferta sharhnomasi** – Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchilar tomonidan tasdiqlangan, mobil ilova yoki bankning veb-sayti orqali keng ommaga e'lon qilingan, barcha asosiy shartlarni o'z ichiga olgan, unda ko'rsatilgan shartlar asosida Kredit qaytmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha oferta sharhnomasi. Sug'urta sharhnomasiga muvofiq Sug'urtalovchi sharhnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sharhnomada nazarda tutilgan voqeа (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) sug'urta tovonini to'lash berish majburiyatini Sug'urtalovchiga yuklovchi hujjat.

**Ommaviy oferta shaklidagi elektron ariza (ariza-anketa)** – Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan sug'urta ob'ekti, Kredit sharhnomasi hamda Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lib, ushbu ma'lumotlar Sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingandan va sug'urta mukofoti to'langandan so'ng aniq bir Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga beriladigan sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan hujjat;

**JFODLTMVOQQTM** - jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish;

**Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (Yagona tizim)** – manfaatdor vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari va markaziy ma'lumotlar bazalari, jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan sug'urta bozori ma'lumotlarini hisobga olish va iste'molchilarga elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini ta'minlovchi yagona tizim.

### 3. SUG'URTA HODISALARI

3.1. Sug'urta hodisasi deb sug'urta davri mobaynida quyida keltirilgan sabablarga ko'ra yuz bergen va Bankka o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish majburiyatlarining buzilishiga sabab bo'lgan voqeaga aytildi:

#### 3.1.1. Qarz oluvchi tomonidan to'lamaslik.

Kredit sharhnomasi bo'yicha to'lovlар jadvalida ko'rsatilgan to'lovlarni belgilangan muddatdan kechiktirish va summani 90 (to'qson) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirib to'lash (to'lamaslik);

#### 3.1.2. Qarz oluvchinig uzоq muddat to'lamaganligi.

Kredit sharhnomasi bo'yicha to'lovlар jadvalida ko'rsatilgan to'lovlarni belgilangan muddatdan kechiktirish va Sug'urtalovchi tomonidan birinchi sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta tovoni to'langandan keyin summani 90 (to'qson) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirish (bu davrga birinchi sug'urta hodisasida hisobga olinadigan 90 (to'qson) kunlik davr qo'shilmaydi). Bunda, kredit "qoniqarsiz" deb e'tirof etiladi;

#### 3.1.3. Qarz oluvchining bankrotligi yoki to'lovga layoqatsizligi.

Qarz oluvchining ushbu Sharhnomasi maqsadlari uchun bankrotligi yoki to'lovga layoqatsizligi – bu Qarz oluvchi quyidagi hodisalar (xavflar) dan biri natijasida Kredit sharhnomasi bo'yicha asosiy qarzni to'lamaganlikka yoki endi to'lay olmasligiga olib keladigan Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli tushuniladi:

- a) vakolatli sud tomonidan qarz oluvchining to'lovga layoqatsiz (vaqtinchalik va/yoki doimiy) va/yoki bankrot deb topilishi;
- b) vakolatli sud tomonidan qarz oluvchiga nisbatan tashqi boshqaruvni joriy etish to'g'risida ajrim chiqarish;
- d) "To'lovga layoqatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartiblar doirasida kelishuv bitimi tuzilsa;
- e) Davlat organi, sud yoki boshqa vakolatli organning qarori yoki boshqa holatlar natijasida Qarz oluvchining mol-mulkka egalik huquqi tugatilsa;
- f) Davlat organi, sud yoki boshqa vakolatli organning qarori yoki boshqa holatlar tufayli Qarz oluvchining majburiyatli shaxsga (qarzdor, debitor va boshqalar) va/yoki majburiy shaxslarga (qarzdorlar, debitorlar va boshqalar) nisbatan talab qilish huquqi to'xtatilsa.

3.2. Quyidagilar sug'urta hodisalari hisoblanmaydi va shunga ko'ra sug'urta tovoni to'lanadigan tarkibiga kiritilmaydi:

3.2.1. Bankning to'liq olinmagan komissiyalari (boshqaruv uchun komissiyalar va boshqalar), kreditning qarzdor tomonidan to'lanmagan qismi — ya'ni asosiy qarz va foizlar bundan mustasno;

3.2.2. Qarz oluvchi tomonidan kredit maqsadsiz ishlatalganda;

3.2.3. Bevosita yoki bilvosita quyidagilar oqibatida yuzaga kelgan Bank zararlari:

a) Kredit shartnomasini rasmiylashtirishda Bank yoki uning vakillari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga rioxat etilmaganda;

b) Bank tomonidan Qarzdor haqida ataylab noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi holati aniqlanganda.

#### **4. SUG'URTA PULI, SUG'URTA QIYMATI VA SUG'URTA MUKOFOTI**

4.1. Har bir Qarzdor bo'yicha sug'urta summasi Bank tomonidan taqdim etilgan va muayyan Sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan Anketa-arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar va axborotlar asosida belgilanadi.

4.2. Shartnomada barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi bilan kelishilgan miqdorda to'lanadi. Sug'urta mukofotining miqdori Sug'urta summasiga nisbatan yillik **1,0 foizdan kam 2,0 foizdan** ko'p belgilanishi mumkin emas.

4.3. Kredit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlar Qarzdor tomonidan muddatidan oldin bajarilgan taqdirda, to'langan sug'urta mukofotining 20 (yigirma) foizi miqdoridagi xarajatlarni chegirgan holda va sug'urta mukofotining qolgan summasidan muddati o'tmagan sug'urta davriga mutanosib ravishda qaytariladi. Bunda, agar ushbu Sug'urta polisi bo'yicha ilgari sug'urta tovoni to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lsa, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

4.4. Har bir alohida onlayn sug'urta polisi bo'yicha sug'urta summasi Kredit shartnomasi (oferta shartnomasi) bo'yicha kredit summasining 125 (bir yuz yigirma besh) foizidan ko'p bo'lmagan summani tashkil qiladi.

4.5. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Ariza-anketani to'liq hajmda taqdim etgandan so'ng Sug'urta mukofoti 1 (bir) kun ichida to'lanishi kerak. Mablag'lar Sug'urtalovchining bank hisobvarag'iga to'liq kelib tushgan kun sug'urta mukofoti to'langan kun hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi Yagona tizimda ro'yxatdan o'tkazilganidan va sug'urta mukofoti to'langanligi sug'urtalovchi tomonidan elektron tarzda tasdiqlanganidan so'ng sug'urta polisi Yagona tizim orqali avtomatik tarzda rasmiylashtiriladi.

#### **5. SHARTNOMANING AMAL QILISHI VA BEKOR BO'LISHI**

5.1. Ushbu Shartnoma tomonlar imzolagan, Qarz oluvchi uchun - u tomonidan mazkur ofertani akseptlagan (qabul qilingan) paytdan etiboran kuchga kiradi va Tomonlar

o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar, aniq onlayn sug'urta polisi uchun esa sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati tugagunga qadar amal qiladi.

5.2. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatları Sug'urtalovchining hisobvarag'iga sug'urta mukofoti kelib tushgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

5.3. Sug'urtalovchi va Qarz oluvchi Qarz oluvchining ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldidagi kredit shartnomasi bo'yicha barcha moliyaviy majburiyatları bo'yicha birgalikda javobgar bo'ladilar (sug'urta miqdori doirasida).

5.4. Sug'urta polisi sug'urta mukofoti to'langan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida beriladi. Bunda sug'urtalovchining majburiyati sug'urta mukofoti sug'urtalovchining hisobvarag'iga kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi. Sug'urta polisi asl nusxada qog'ozda ham, elektron shaklda ham (onlayn polis ko'rinishida) Sug'urtalovchining tegishli ilovalari yoki platformalari orqali rasmiylashtirilishi mumkin.

5.5. Ushbu Sharhnomasi bo'yicha majburiyatni bajarishni bir tomonlama rad etishga va Sharhnomasi shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

5.6. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta shartnomasining mohiyati va shartlaridan kelib chiqqan holda filiallar o'rtasida hamkorlik qiladi.

5.7. Kredit shartnomasining amal qilish muddati uzaytirilgan taqdirda ushbu Sharhnomaning amal qilish muddati qo'shimcha sharhnomasi tuzish va tegishli sug'urta mukofotini to'lash yo'lli bilan uzaytirilishi mumkin.

## 6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 6.1. Sug'urta qildiruvchi va/yoki Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1. Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati davomida sug'urta masalalari bo'yicha bepul maslahat olish;

6.1.2. sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan taqdirda, ushbu sug'urta shartnomasida va sug'urta polisida nazarda tutilgan muddatlarda va miqdorlarda uni olishni talab qilish;

6.1.3. sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olish;

6.1.4. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortganligi ustidan sudga shikoyat qilish;

6.1.5. Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu Sug'urta shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

6.1.6. Ushbu Sharhnomasi shartlariga ko'ra sug'urta hodisasi deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan voqealarni sodir bo'lgan holatlarni tekshirishda ishtirop etish.

### 6.2. Sug'urta qildiruvchining majburiyatları:

6.2.1. sug'urta mukofotini o'z vaqtida va belgilangan tartibda to'lash;

6.2.2. Sug'urtalovchiga xavf darajasiga ta'sir etuvchi omillar va ushbu Sharhnomaning amal qilish muddati davomida sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan holatlarni aniqlash uchun muhim bo'lgan ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishi.

6.2.3. ushbu Sharhnomasi shartlariga ko'ra sug'urta hodisasi deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan voqealarni sodir bo'lganda, uning sodir bo'lganligi to'g'risida o'z vaqtida va ushbu Sharhnomada belgilangan tartibda Sug'urtalovchini xabardor qilish.

6.2.4. Sug'urtalovchining oldindan yozma roziligidan kredit shartnomasi (oferta shartnomasi) shartlari va talablari, shu jumladan kredit muddati va kredit limitiga nisbatan qisqartirmaslik yoki o'zgartirmaslik;

6.2.5. Sug'urta qildiruvchining yoki Qarz oluvchining yuridik manzili va/yoki bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida bu haqda Sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qiladi.

### 6.3. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1. sug'urta shartnomasi amal qilish muddati davomida qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi (oferta shartnomasi) shartlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

6.3.2. Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish;

6.3.3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urta tovoni to'langanidan keyin qarz oluvchidan va boshqa aybdor shaxslardan yetkazilgan zararning undirilishini talab qilish huquqidан foydalanish.

6.3.4. Mustaqil ekspertiza o'tkazish uchun tegishli profildagi mustaqil ekspertlarni o'z mablag'lari hisobidan taklif qilish

6.3.5. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiқ sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortish.

6.3.6. Agar ushbu Shartnomaning 7-bo'limida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa, sug'urta hodisasi yuz berganligi va sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish;

#### **6.4. Sug'urtalovchining majburiyatları:**

6.4.1. Sug'urta qildiruvchi /qarz oluvchiga sug'urta masalalari bo'yicha maslahat va tushuntirishlar berish;

6.4.2. Qarz oluvchining qarzini (Sug'urta qildiruvchining xarajatlarini) qoplash uchun uchinchi shaxs (shaxslar) tomonidan ta'minot sifatida taqdim etilgan garovdagi mulkka, garovga va kafillikka undiruv qaratilganligidan qat'iy nazar, sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnama imzolangan kundan boshlab 1 (bir) kalendar kun ichida Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lash;

6.4.3. sug'urta hodisasi deb e'tirof etilmagan va sug'urta tovonini to'lash rad etilgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchiga rad etish sabablarini ko'rsatgan holda asoslarni yuborish;

6.4.4. Sug'urta qildiruvchi /qarz oluvchi sug'urta mukofoti to'lagan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida onlayn sug'urta polisini rasmiylashtirish;

6.4.5. sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchiga ushbu sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va miqdorda sug'urta tovonini to'lash;

6.4.6. mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda sug'urta polisining Sug'urta qildiruvchining filiallariga yetkazib berilishini ta'minlash;

6.4.7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, Sug'urta qildiruvchi, qarz oluvchi va ularning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

### **7. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH VA SUG'URTA TOVONININI TO'LASH**

7.1. Ushbu Shartnoma shartlariga ko'ra sug'urta hodisasi deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan har qanday voqeа sodir bo'lganda, Sug'urta qildiruvchi 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Sug'urtalovchiga o'ziga ma'lum bo'lgan sabablar va holatlarni ko'rsatgan holda yozma ariza yuborishi shart.

7.2. Yozma ariza Sug'urta qildiruvchi tomonidan erkin shaklda tuziladi va unda Sug'urta qildiruvchining kredit shartnomasi (oferta shartnomasi) bo'yicha qilgan xarajatlari - kredit shartnomasi bo'yicha asosiy qarz va foizlarni qoplamaslik bilan bog'liq hisob-kitoblar va batafsil ma'lumotlar ko'rsatiladi.

7.3. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashi uchun Sug'urta qildiruvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

7.3.1. sug'urta tovonini to'lash uchun ariza (da'vo xati);

7.3.2. sug'urta polisi (elektron sug'urta polisi);

7.3.3. kreditdan maqsadli foydalanish dalolatnomasi (agar maqsadlilik dalolatnomasi tuzilishi talab qilingan bo'lsa);

7.3.4. Qarz oluvchining kredit bo'yicha qarzi miqdorini aks ettiruvchi, Sug'urta qildiruvchi tomonidan tasdiqlangan hujjat (ma'lumotnoma, to'lov grafigi);

7.3.5. Sug'urtalovchining Sug'urta qildiruvchida va/yoki Qarz oluvchidan shartnomaning ushbu bandida ko'rsatilmagan hujjatlarni talab qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

7.4. 3.1-bandning 3.1.1. kichik bandida ko'rsatilgan holatlar yuz berganda – asosiy qarz va foizlar bo'yicha kechiktirilgan summa miqdorida, shuningdek, hisobot oyining oxirgi sanasida Kredit shartnomasi bo'yicha to'lov jadvaliga muvofiq muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblangan foizlar biroq har qanday holatda ham muddati o'tkazib yuborilgan summadan oshmaydigan summada sug'urta tovonini to'laydi.

7.5. 3.1-bandning 3.1.2. kichik bandida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda – asosiy qarzning umumiy summasi miqdorida, shuningdek, muddati o'tkazib yuborilgan qarz uchun hisoblangan foizlar, kreditning asosiy summasi va foizlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblangan foizlar, ammo har qanday holatda ham sug'urta summasidan oshmaydigan miqdorda sug'urta tovonini to'laydi.

7.6. 3.1-bandning 3.1.3. kichik bandida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda – asosiy qarzning umumiy summasi miqdorida, shu bilan birga, muddati o'tkazib yuborilgan qarz uchun hisoblangan foizlar, kreditning asosiy summasi va foizlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblangan foizlar, ammo har qanday holatda ham sug'urta summasidan oshmaydigan miqdorda sug'urta tovonini to'laydi.

7.7. Sug'urtalovchi da'vo arizasi va zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida sodir bo'lgan voqeani sug'urta hodisasi deb e'tirof etish yoki e'tirof etmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

7.8. Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lash sug'urta hodisasi to'g'risidagi Qaror imzolangandan keyin 5 (besh) bank ish kuni ichida amalga oshiriladi. Sug'urta tovonini to'lash sanasi Sug'urta qildiruvchining bank hisob raqamiga pul mablag'lari kelib tushgan kun hisoblanadi.

7.9. Ushbu Shartnoma bo'yicha zarar qoplanguidan so'ng, Sug'urtalovchiga Qarz oluvchiga yoki Kredit shartnomasi (oferta shartnomasi) shartlari va amaldagi qonunchilik normalaridan kelib chiqadigan har qanday shaxs va tashkilotga murojaat qilish huquqi berilganligini tasdiqlaydi.

## 8. SUBROGATSIYA

8.1. Sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga to'langan summa doirasida ushbu Sug'urta shartnomasiga muvofiq qoplangan zararlar (qarz oluvchi va boshqalar) uchun javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi ega bo'lgan talab qilish huquqi o'tadi. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga barcha hujjatlar va dalillarni topshirishi va Sug'urtalovchining o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni xabardor qilishi shart.

8.2. Agar Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan talab qilish huquqidан voz kechsa yoki sug'urta qildiruvchining aybi bilan ushbu huquqni amalga oshirish imkonsiz bo'lib qolsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq to'lashdan yoki tegishli qismida ozod qilinadi va to'langan sug'urta tovoni summasini qaytarishni talab qilishga haqli.

## 9. KORRUPSIYA VA JFODLTMVOQQTM GA QARSHI KURASHISH HAMDA BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilaolri harakatlarga ta'sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbul imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to'lovlarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

9.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro huquq talablarini buzadigan haraktlarni

amalga oshirmaydilar, jinoiy yo'l bilan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar qilmaydi.

9.3. Ushbu shartnoma taraflarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodimni ma'lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta'minlash, xodim rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta'qiqланади.

9.4. Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki, shu jumladan, ishonch telefonini orqali xabardor qilish majburiyatini oladi.

9.5. Tomonlar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar tomonlar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.6. O'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.7. Sug'urta tovonini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizidan ko'p bo'Imagan miqdorda penya to'laydi. Penyalarni to'lash Sug'urtalovchini sug'urta tovonini to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

9.8. Sug'urtalovchiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni to'lash muddatlariga ryoja etilmagan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining talabiga ko'ra, kechiktirilgan har bir kun uchun 0,1 foiz miqdorida qarz summasiga penya to'laydi, lekin to'lanadigan summaning 50 foizidan ko'p bo'Imagan miqdorda to'laydi.

9.9. Agar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari bartaraf etib bo'imas holatlari (fors-major) tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major holatlari ta'sir qilgan tomon boshqa tomonni ushbu holatlarning yuzaga kelishi va mumkin bo'lgan davomiyligi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart. Bunday holda, Tomonlar belgilangan tartibda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy to'lovni amalga oshiradilar.

9.10. Tomonlar fors-major holatlari davrida ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgar emaslar.

9.11. Fors-major holatlari quydagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va shartnomada ko'rsatilmagan boshqa tabiiy ofatlar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy harakatlar (harbiy harakatlar) natijasida yuzaga kelgan favqulodda, oldini olish mumkin bo'Imagan va kutilmagan holatlari; blokadalar, davlat tashkilotlari va davlatlar o'rtaсидаги cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek hukumat qarorlari va boshqalar), agar bu holatlар Shartnomaning bajarilishiga bevosa ta'sir qilgan bo'lsa).

9.12. Fors-major holatlari yuzaga kelganda, tomonlarning majburiyatlarini bajarish muddati fors-major holatlari davom etayotgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

9.13. Ushbu Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritish tomonlarning kelishuvi bilan amalga oshiriladi. Ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuv yozma ravishda tuziladi.

9.14. Ushbu shartnoma shartlari o'zgargan taqdirda, majburiyatlar ushbu shartnomani o'zgartirish to'g'risidagi yozma shartnomada ko'rsatilgan kundan boshlab o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

9.15. Ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga topshirishga tomonlarning yozma rozilgisiz yo'l qo'yilmaydi.

9.16. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlarda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida", "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunlar va O'zbekiston Respublikasida amaldagi boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

9.17. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi maxfiylik uchun javobgardir va ushbu shartnoma, ilova va ushbu shartnoma bilan bog'liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning yozma ruxsatisiz uchinchi tomonga oshkor qilmaydi.

9.18. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud tartibida hal qilinadi.

9.19. Shartnoma tomonlari, shuningdek har bir tomonning vakillari yoki xodimlari ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan firma yoki maxfiy ma'lumotlarni har bir tomonning oldindan yozma roziligidan oshkor qilmaydi.

#### **10. SUG'URTALOVCHINING REKVIZITLARI:**

To'liq nomi: "KAPITAL SUG'URTA" AJ

Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., M.Gandi ko'ch., 44

Elektron manzili: info@kapitalsugurta.uz

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar: Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1997 yil 21 avgust sanada davlat ro'yxatidan o'tkazilgan

Litsenziya to'g'risida ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan 2022 yil 22 oktyabr sanadagi 049696-sonli Litsenziya berilgan.